JOURNAL OF INNOVATIONS IN SOCIAL SCIENCES
www.sciencebox.uz
Volume: 03 Issue: 02 | Feb - 2023
ISSN: 2181-2594

MUHAMMAD ALINING “SARBADORLAR”ROMANIDA AMIR TEMUR SIYMOSI

Qosimov Abdug‘apir Abdukarimovich
FarDU professori, filologiya fanlari doktori To‘lqinov Bobirjon Baxtiyor o‘g‘li FarDU, 2-kurs magistranti

Annotasiya: Amir Temur siymosi Muhammad Alining “Sarbadorlar”romanida yoritilishi nomli maqolada Amir Temur va Temuriylar davlatining tarixi, Temuriylar davlati asoschisi hisoblangan Amir Temurning hayoti va uning hayotida yuz bergan muhim voqealar,sarbadorlarning Amir Temur hayotida tutgan o‘rni yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Temur tuzuklari, Temuriylar davlati, Sohibqiron, Muhammad Ali, Temurlang, sarbadorlar, devon, dargoh,siymo.

Mustaqillik yillarida yuz bergan muhim ijobiy o‘zgarishlardan biri bu xalqimizning milliy qahramoni, mustabid sovet hukumronligi davrida nomi nohaq qoralangan Amir Temur pok nomining oqlanishi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Sohibqironning millat va davlat ravnaqidagi buyuk xizmatlari e’tirof etilib, Sohibqiron shaxsiga bo‘lgan munosabat davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsi, uning davlati, ichki va tashqi siyosati, Temuriylar hukmronligi xususida ko‘plab ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi. Muhammad Ali 1984 — 1989 yillar orasida yozgan ikki kitobdan iborat «Sarbadorlar” romani uning nasriy yo‘sinda bitilgan birinchi badiiy asari bo‘ldi. Roman so‘zboshisida akademik M. Qo‘shjonov ta’kidlaganidek, «...ba’zi bir takrorlarga, cho‘ziqliklarga, badiiyat talabiga javob bermaydigan bir bet-yarim bet bayonlarga...» duch kelish mumkinligiga qaramay, bu yirik asarda samimiylik ustuvordir. Unda tarixiy timsollarga nisbatan to‘qima obrazlarning ta’sirchan va ishonarli tasvirlanganligi ilk bor nasrda qalam surayotgan ijodkorning tarixiy shaxslar ifodasiga erkin yondashishdan hadiksirashi natijasi edi.

Romandagi Shero‘g‘lon, Shirinbika, Jaloyirbek, Jahonbika, bir oz kitobiyroq bo‘lsada, Axiy Jabbor singari timsollar tasviri o‘quvchini o‘ziga rom etadi.Tasvir maromi qay sari borayotgani o‘quvchidan ustalik bilan sir tutilgan o‘rinlarida voqealarning kutilmagan yo‘sindagi rivoji asarning ta’sir kuchini oshiradi. Yozuvchi qo‘l urgan mavzu tabiati va tasvir ko‘lami miqyosidan kelib chiqib, necha o‘nlab taqdirlarni hayotiy bir fokus atrofiga yig‘ib ko‘rsatishni uddalay olgan. Adib romanda bobolarni ezilgan, ojiz, betadbir qul emas, haqiqatni qaror topdira oladigan bek sifatida tasvirlaydi. Bu hol tasvirning bir qadar romantik, ko‘tarinki, qo‘llaniladigan so‘zlarning-da bir qadar kitobiy bo‘lishini taqozo etgan. Yozuvchi uzoq tarixda ro‘y bergan bir fakt bo‘lmish sarbadorlar harakatini qayd etishnigina emas, balki oddiy talabasi va paxta tituvchisi mamlakat barpo etib, yurt so‘rab, adolat o‘rnatishga qodir millatning tarixiy kayfiyatini ifodalashni niyat qilgan. Romanda yozuvchining bir umrlik muhabbati nishoni bo‘lmish Amir Temur siymosi atroflicha tasvirlanmadi. Zero, sarbadorlar taqdiriga bag‘ishlangan asarda Temur siymosini batafsil tadqiq etish badiiy mantiqni buzgan bo‘lardi.

Amir Temur shaxsi haqida ko‘plab badiiy va ilmiy asarlar yaratildi.Xususan, Muhammad Alining “Sarbadorlar” romani ham Amir Temur shaxsini yoritib berishda beqiyos o‘ringa ega. “Sarbadorlar” faqat tarixiy voqealar tafsilotiga bag‘ishlangan asar emas, o‘sha davr ruhiga mos qator to‘qima

obrazlarning birligidan iborat romandir. Romanda Amir Temur obrazi tasviriga ham ancha o‘rin ajratilgan. Jahon miqyosida bu sarkarda obrazi tasviriga ko‘p asarlar bag‘ishlangan. Ammo Amir Temurning o‘z vatani – Turkistonda bu ulug‘ shaxs adabiyot e’tiboridan chetda bo‘lib keldi. “Sarbadorlar”da,adabiyotimizda mavjud bu kemtik biroz to‘ldiriladi. Bizning nazarimizda, Muhammad Ali obraz tasvirida ham obyektiv haqiqatga amal qiladi. Ba’zi bir asarlarda qayd qilinganidek, Amir Temur faqat bosqinchi,faqat zarb va zulmni o‘ziga qurol qilib olgan battol qaroqchi sifatida tasvirlanmaydi. U murakkab va ziddiyatli obraz. Bir jihatdan, unda o‘sha davrga xos yakkahokimlik, o‘zidan boshqani tan olavermaslik singari hislatlar bor. Ikkinchi jihatdan, Muhammad Ali yaratayotgan yosh Amir Temur tarqalib borayotgan bekliklar va xonliklardan qayta tiklash va Turkistonni qudratli mamlakatga aylantirishni orzu qiladi. Shu asosda u qator kundalik va uzoqni ko‘zlagan rejalar tuzadi. O‘zining butun hayotini shu maqsadga bo‘ysindirgani uchun bu yo‘lda u tadbirkor,jasoratli,kerak paytlarda ko‘pchilik talab va ehtiyojlarini hisobga oladigan shaxsdir.

Amir Temur, hammamizga ma’lumki, ulkan Temuriylar davlatiga asos soldi. Amir Temur o‘z davlatini barpo qilishda o‘tmishda mavjud siyosiy boshqaruv tajribalaridan keng foydalandi. Uning davlati o‘z tarkibiy tuzulishiga ko‘ra ko‘pincha harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan edi. Amir Temurning Nizom ul- Mulk tomonidan yaratilgan "Siyosatnoma" asaridan davlat ishlarida keng qo‘llanma sifatida foydalanishi, "Temur tuzuklari" da "Siyosatnoma" dan fikrlar keltirishi bunga yorqin misoldir. Amir Temur barpo etgan davlat o‘zining eng rivojlangan davrida juda ulkan hududni o‘z ichiga olgan bo‘lib O‘rta Osiyodan tashqari, Eron, Ozarbayjon, Iroq va Afg‘onistonni qamrab olgan. U davlatni o‘g‘illari, nabiralari va xos amirlari yordamida idora qildi. Manbalarda Temur saroyida mavjud bo‘lgan qabul marosimi haqida ham ma’lumot saqlanib qolgan. Jumladan taxtning o‘ng tomonida sayyidlar, qozilar, ulamolar, shayxlar o‘tirgan. Chap tomonda esa amir ul-umaro, beklarbegi, qo‘shin amirlari, no‘yonlar, ulus, tuman, qo‘shin boshliqlarining joyi bo‘lgan.

Temur va Temuriylar davlati xalqaro maydonda ham shuhrat qozongan. Temur davlati bilan Sharq va Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi yozishmalarga qaraganda diplomatik, siyosiy va savdo aloqalari rivojlangan. Amir Temur "Temur tuzuklari" da o‘z mamlakatini boshqarishda aholini ma’lum ijtimoiy qatlamlarga bo‘lganligini aytib o‘tadi. Amir Temur va uning davri xususida zamondoshlari G‘iyosiddin Alining "Ro‘znomayi g‘azovoti Hinduston", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Ibn Arabshohning "Temur tarixi" kabi qimmatli asarlari mavjuddir. Lekin buyuk jahongir hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan asarlar ichida shubhasiz "Temur tuzuklari" alohida ahamiyat kasb etadi. "Tuzuki Temuriy"("Temur tuzuklari"), "Malfuzoti Temuriy"("Temur aytganlari") va "Voqioti Temuriy"("Temurning boshidan kechirganlari") nomlari bilan atalmish ushbu asar qimmatli tarixiy manba bo‘lib, jahondagi mashhur kutubxonalardan joy olgan. Asar Amir Temur tomonidan yozdirilgan bo‘lib, avval eski o‘zbek(chig‘atoy yoki turkiy) tilda bayon etilgan. Amir Temur "Temur tuzuklari"da shunday deydi: "Qaysi mamlakatni zabt etgan bo‘lsam, o‘sha yerning obro‘- e’tiborlik kishilarini aziz tutdm, sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixiga ta’zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg‘ol, vazifalar berib maoshlarini belgiladim".

Amir Temur o‘z hukumronligi davrida mutassiblik, ayirmachilik, ko‘rinishlariga yo‘l bermadi. Osoyishtalik, tinchlik- xotirjamlik xavfsizlik borasida ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirdi. Bu xususda sohibqiron ".... saltanatimning u chetidan bu chetigacha biror bolakay boshida bir lagan tilla ko‘tarib o‘tadigan bo‘lsa, bir donasiga ham zarar yetmaydigan tartib-intizom o‘rnatdim" deya aytib o‘tadi.

Xulosa qilib aytaydigan bo‘lsak, Amir Temur tarixdagi eng buyuk shaxslardan biri. Ajablanarlisi shundaki, XIV asrning eng yorqin va mo‘tabar zotining buyukligi keyinchalik har turli afsonalar-u uydirmalar girdobiga qolib ketdi. Xayriyat, haqiqat yulib keldi. Amir Temurning yirik davlat arbobi, o‘rta asr islohotchisi, jasur, adolatpesha, fan va madaniyat homiysi sifatidagi siymosi har turli mafkuraviy tasirotlarga, kamsitilgan va adolatsiz baholarga qaramay, asrlar osha yashab keldi. Amir Temurning tarixdagi xizmati shundan iboratki, u davlatchilikning boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosatining tartib-qoidalari, huquqiy asoslarini yangi tarixiy sharoitda takomillashtirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, *3*(01), 556-559.
2. Sabirdinov, A. . (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, *1*(2).
3. Mukhammadjonova Guzalkhan. The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume : 10, Issue : 11, November. - India, 2020.
4. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In *Конференции*.
5. Abdurashidovich K. A. Motivation and National Character of Foolishness in Uzbek Literature //ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. – 2018. – Т. 7. – №. 4. – С. 47-51.
6. Qayumov A. CREATING OF A NATIONAL CHARACTER THROUGH MEANS OF LITERATURE //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 1. – С. 235-240.
7. Kayumov, A. A., & Isakova, J. B. (2022). DESCRIPTION OF A CHILD'S IMAGE IN UZBEK LITERATURE. *Oriental Journal of Social Sciences*, *2*(02), 115-122.
8. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, *3*, 9-13.
9. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, *3*, 9-13.
10. Джураева, М. А. (2020). THE CONCEPT OF A NEW HUMAN-BEING IN MODERN UZBEK STORIES. *Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Серия гуманитарно-общественных наук*, (2), 85-89.
11. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, *32*(1), 116-120.
12. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguisitcs and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
13. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.
14. Akhmadjonova O. A. Symbolic And Figurative Images Used In The Novel “Chinar” //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 389-392.

15. Ahmadjonova, O. (2020, December). THE ARTISTIC SKILL OF THE CREATOR. In Конференции.6. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.
16. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. In *Конференции*.
17. Makhmidjonov, S. (2021). ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE EDGES OF THE HUMAN PSYCHE. Интернаука, (15-3), 75-76.
18. Yulchiyev, Q. (2019). The development of lyric chronotop in Uzbek poetry. *Scientific journal of the Fergana State University*, *2*(2), 77-81.
19. Юлчиев, К. В. (2020). ЛИРИК ШЕЪРДА БАДИИЙ МАКОН МУАММОСИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, *3*(5).
20. Azimovich, R. Z. Chronotope Image in the Novel" Ulugbek Treasure" by Odil Yakubov. *International Journal on Integrated Education*, *3*(11), 183-186.
21. Rahimov, Z., & Gulomov, D. (2020, December). RETROSPECTIVE STRUCTURE IN FICTION. In *Конференции*.
22. Dehkonova, M. S. (2020). OYBEK'S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. Theoretical & Applied Science, (2), 13-17.
23. Hamidov, M. (2020, December). ARTISTIC FEATURES OF SHUKHRAT'S NOVEL" MASHRAB". In Конференции.
24. UMURZAKOV, R. (2018). Social environment and spiritual world of teenager in narrative "Saraton" by N. Fozilov. *Scientific journal of the Fergana State University*, *1*(4), 104-105.
25. Umurzakov, R. (2021). ERA AND SPIRIT IN THE STORY "TWICE TWO IS FIVE". *Journal of Central Asian Social Studies*, *2*(02), 26-35.
26. Kasimov, A. Albert Camus in Uzbekistan.
27. Kasimov, A. A. (2020). PECULIARITIES AND SIMILARITIES OF SYMBOLIC EXPRESSION IN THE NOVELS "THE PICTURE OF DORIAN GRAY" AND "THE MAN AT THE MIRROR". *Theoretical & Applied Science*, (5), 590-592.
28. JURAYEV, H., & ABDURAHIMOVA, J. (2018). Semantic layers of the expression in the Babur lyric. *Scientific journal of the Fergana State University*, *1*(3), 111-112.
29. Rustamova I.I. Rhythm Views on the Plot of the Work / / Badiy asar syujetida ritm ko'rinishlari. // International Journal of Innovative Research. – India,June, 2021, –P. 8355-8357.
30. Rustamova I.I. PORTRAIT AND ITS ARTISTIC-AESTHETIC FUNCTION IN THE WORKS OF ABDULLA QAHHOR//Abdulla Qahhor asarlarida portretning badiiy-estetik funksiyasi//AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. – America, December, 2021, –P. 230-234.